## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi” yo‘nalishi

<table>
<tr><th>Loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td>He-Ne (geliy-neon) lazer qurilmasidan foydalanib saksovul (Haloxylonaphyllum) urug‘larining nurlanish orqali unib chiqish qobiliyatini va ko‘chatlarning o‘sishini tezlashtirish agrotexnikasini ishlab chiqish<br></td><td>Tadqiqot shakli: Amaliy.<br>Ilmiy tadqiqot natijalari:<br>- He-Ne (geliy-neon ) lazer qurilmasini qo‘llash orqali saksovul urug‘larini unib chiqish va o‘sish qobiliyatini yaxshilash imkoniyatlari o‘rganiladi;<br>- nurlanish orqali saksovul (Haloxylonaphyllum) ko‘chatlarinig Orolqum cho‘li sharoitiga chidamliligini oshirish hamda o‘sishini tezlashtirish imkoniyatlari sinovdan o‘tkaziladi;<br>- He-Ne (geliy- neon ) lazer qurilmasini qo`llash orqali urug`larni qisqa muddatda unib chiqishi va tuproq tarkibida namlik mavjud bo`lgan sharoitda o`sib atrof–muhitga moslashishiga erishiladi bu orqali saksovul nihollari yashab qolishiga imkon yaratiladi;<br>- yetishtirilgan ko‘chatlar Orol dengizining qurigan tubiga ekiladi (O‘zbekiston Respublikasi hududidagi maydoni 3,2 mln gektar).<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga qarashli tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</td></tr>
</table>